

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 9 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Ақтамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Mamatjonov Rahimjon Akramovich*  
“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY  
HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR  
TAHLILI ..... 10-16
- Облобердиев Жасурбек Косим угли*  
МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX  
ВВ ..... 17-22

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Турсунов Бекмухаммад Омонович*  
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА  
КЎРСАТКИЧЛАРИ ..... 23-34
- Курпаяниди Константин Иванович*  
ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ  
УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ..... 35-44
- Ahmedov Shohjaxon*  
O‘ZBEKISTONDA SHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ..... 45-51
- Кулибоев Азамат Шоназарович*  
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 52-62
- Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*  
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА  
АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ..... 63-73
- Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*  
TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 74-80
- Davronov Istamxo‘ja Olimovich*  
МЕНМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СIFATINI BAHOLASH  
USULLARI ..... 81-86
- Маматов Бахадир Сафаралиевич*  
ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ  
МАСАЛАЛАРИ ..... 87-96
- Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*  
КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА  
ТЎЛАШ ТАРТИБИ ..... 97-104
- Баратов Махсудали Назиралиевич*  
МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ –  
ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 105-116

<i>Ergashev Islom Ismoilovich</i> KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	117-127
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ .....	128-136
<i>Эшонкулов Акмал Кудратович</i> ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	137-142
<i>Астанов Шерзод Рустамович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	143-150
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Abdullayev Ibodulla Abdullayevich</i> YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI .....	151-155
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR .....	156-164
<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI .....	165-174
<i>Allayarova Marhabo Mavlonovna</i> UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI .....	175-179
<i>Рахманов Баҳодир</i> СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....	180-186
<i>Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich</i> ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI .....	187-191
<i>Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich</i> JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI .....	192-197
<i>Azimov Ashirali Mehmonboyevich</i> XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	198-202
<i>Azimov Sherzod</i> PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY .....	203-207
<i>Абдурахмонович Хасан Иброхимович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	208-216

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI ..... 217-223

*Тешабаева Дилфуза Муминовна, Абдухалилова Гулбаҳор Карабаевна*

ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА

ЯСАЛИШИ ..... 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI ..... 242-246

*Vositov Otabek Toxirjonovich*

TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIKA

GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI ..... 247-253

*Нодир Раҳматуллаев*

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ ..... 254-260

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..... 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI

INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 271-276

**13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*

OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV

KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ..... 277-281

*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH

(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI ..... 282-287

*Kadirov Ramz Turabovich*

TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI

MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) ..... 288-295

*Khabiba Madaminovna Jurabekova*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE

COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS ..... 296-302

<i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i> KLAUSTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELASHTIRISH MASALALARI .....	303-310
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i> MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI .....	311-316
<i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH .....	317-322
<i>Yulbarsova Xurshida</i> BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK JIHATLARI .....	323-329
<i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i> BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH .....	330-335
<i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i> O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI .....	336-341
<i>Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna</i> AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH .....	342-346
<i>Askarova Zulayxo</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	347-352
<i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i> EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS .....	352-362
<i>Jumaniyazova Go'zal</i> OLY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI .....	363-367
<i>Xusaiova Leyla Yunusova</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ .....	368-373
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i> МАТЕМАТИК КРЕАТИВ ТАВСИФДАГИ MASALALARNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI .....	374-379
<i>To'xtasinov Muhammadjon</i> PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI .....	380-384



*Eshnazarov Murod Karimovich*

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI .....385-391

13.00.00- Педагогика фанлари

**Muminov Ulmas Ravshanqulovich**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchi  
e-mail: [umuminov089@gmail.com](mailto:umuminov089@gmail.com)

**O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH –  
ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mahalla tushunchasi, tarixi uning o'zbek xalqi hayotidagi ahamiyati, shuningdek mustaqillik yillarida mahalla institutini qaytadan tashkil etilishi va turli yillarda qabul qilingan qonunlar orqali asoslanishi o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** Mahalla, qonun, sud, zargarlik, ko'pchilik, xalq, millat, tarix, urf-odat, vatan, fuqaro, davlat

**Muminov Ulmas Ravshankulovich**

Teacher at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**ESTABLISHMENT OF "MAHALLA INSTITUTE" AS A LOCAL SELF-GOVERNMENT  
ORGANIZATION IN UZBEKISTAN, CREATION OF ITS LEGAL BASIS**

**Abstract.** In this article, the concept of neighborhood, its history, its importance in the life of the Uzbek people, as well as the reorganization of the neighborhood institution in the years of independence and its foundation through laws adopted in different years are reflected.

**Keywords:** Neighborhood, law, court, jewelry, tanning, people, nation, history, tradition, homeland, citizen, state

**Муминов Улмас Равшанкулович**

Преподаватель Денауского Института  
предпринимательства и педагогики

**СОЗДАНИЕ «ИНСТИТУТА МАХАЛЛИНЫ» КАК ОРГАНА МЕСТНОГО  
САМОУПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ, СОЗДАНИЕ ЕГО ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ**

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены понятие микрорайона, его история, его значение в жизни узбекского народа, а также воссоздание института соседства в годы независимости и его основание посредством законов, принятых в разные годы. отражаются.

**Ключевые слова:** Соседство, закон, суд, украшения, дубление, народ, нация, история, традиция, родина, гражданин, государство.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N45>

O'zbekiston hududida yashagan xalq va elatlar qadimdan bir birlari bilan inoqlikda, hamjihatlikda uyushib yashab kelganlar. Mahalla Vatan ichidagi "kichik vatan" hisoblanadi.

“Mahalla” arabcha “mahal” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “joy” degan maʼnoni anglatadi[1]. Masalan; Toj mahal – toj kiydiriladigan joy. Adabiyotlarda mahallaning koʻp ming yillik tarixga egaligi koʻrsatiladi. Masalan; Buyuk alloma Alisher Navoiy Hirotning Margʻani mahallasida yashab, u yerni shaharning eng chiroyli maskanlari qatoriga qoʻshgan va 370 dan ortiq bunyodkorlik ishlariga bosh boʻlgan[2]. Alisher Navoiy “Hayrat ul – Abror” asarida mahallani “Mahalla – shahar ichidagi shaharcha” – deb taʼrifladi, Amir Temur davrida esa mahallalar kasb – kori qiladigan yumushiga qarab shakllangan. Masalan; Zargarlik, koʻnchilik, taqachi deb nomlangan. Bu borada “Temur tuzuklari”da Sohibqiron Amir Temur shunday deganlar: “Har bir oʻlka va shahar aholisining ashrof – urugʻlari va buzruklari bilan oshna tutindim. Ularning tabiatiga toʻgʻri kelgan, oʻzlari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim”[3].

Rossiya imperiyasining Turkistonni mustamlaka qilib olishi natijasida, oʻlkada mavjud 3 ta xonlik oʻrniga Turkiston general-gubernatorligining tuzilganligi, general-gubernator mahalliy va sud hokimiyatining ustidan nazorat qilishi, mahalliy maʼmuriyat ruslarning qoʻlida jamlanganligi mahallaning rivojlanishida toʻsiq yaratgani yoʻq.

Sobiq shoʻro davlati hukmronlik qilgan davrda Turkistonda nafaqat mahalliy boshqaruv balki butun boshqaruv apparati sohasida byurokratiya ildiz otib ketgan. Chor hukumati oʻz hokimligini oʻrnatgandan soʻng oʻzida oʻzbek milliyatini, hunarmandchiligini hamda tabiiy joylashuv sharoitini saqlab qolgan mahalla nomlarini yoʻqotish maqsadida, mazkur joy nomlariga har xil sovetcha andozadagi nomlar, totalitar tuzumga xizmat qilgan shaxslarning nomlari berilgan. Masalan: Bolohovuz nomi Sverdlov nomiga, Namaton nomi Kalinin nomiga, shuningdek, Karpov, Kuybishev, Qizil askar, Voroshilov, Udarnik va shu kabi yot nomlarga oʻzgartirildi.

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda barcha sohalarda keng miqyosda islohotlar amalga oshirildi. Har qanday soha boʻlmasin, xoh u iqtisod, xoh siyosiy, xoh ijtimoiy — madaniy sohada tub oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Yurtimizda “Mahalla” deb atalmish qadriyatlar uygʻunligiga asoslangan va tashkil etilgan boshqaruv apparati ham aynan yuksalishning birinchi odimi deb atasak mubolagʻa boʻlmaydi. Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bejizga “...Bizda shunday bir noyob, betakror ijtimoiy boshqaruv idorasi borki, uni hech narsa bilan solishtirib boʻlmaydi. Bu – yuz yillar davomida rivojlanib kelayotgan va ayniqsa, mustaqillik davrida tubdan yangilanib, zamon talablari asosida takomillashib borayotgan mahalla tizimidir”[4] – deb taʼkidlagan edi. Davlatimizning bosh maqsadi “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan mazmunli gʻoyasining bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan mahalla institutida amaldagi ustuvor yoʻnalish etib belgilanganligi, yurtimiz fuqarolik jamiyatida mahallaning nufuzi yanada yuqorida ekanligidan dalolat beradi. Mahallaning fuqarolarni oʻzini oʻzi boshqarish organiga aylanishi bosh qomusimiz – Konstitutsiyamizning 32,105 – moddalarida aks ettirilib, mazkur moddalarda fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlarining tashkil etilish asoslari, ularning boshlangʻich faoliyati va shuningdek, jamiyatdagi tutgan oʻrni va ahamiyati yaqqol yoritib berilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazkur moddalariga asoslanib, 1992-yil 2-sentabrda “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunning qabul qilinishi, 1992-yil 12-sentabrda “Mahalla” xayriya jamgʻarmasining tashkil etilishi, xalqimizning azaliy qadriyatlari va anʼanalarini qayta tiklash va rivojlantirishga hamda davlat vazifalarini quyi boshqaruv idoralari (mahallalar) ga oʻtkazish bilan jamiyatni liberallashtirish uchun qoʻyilgan dastlabki qadam boʻlib xizmat qildi. Konstitutsiyamizda nazarda tutilgan qoidalar asosida Oʻzbekiston

Respublikasining 1993 yil 2 sentabrda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” gi Qonuni[5] qabul qilindi. Qonunda umumiy qoidalar, fuqarolar yig‘inini chaqirish tartibi, rais (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylash tartibi, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining iqtisodiy negizlari va ularning vakolatlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining strukturasi va ular faoliyatini tashkil etish, raisning vakolatlari kabi masalalar huquqiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur Qonunning ijrosini ta‘minlash maqsadida 1993-yil 19-oktabrdan Shahrizabz shahridagi mahallalarda fuqarolar vakillarining yig‘ilishlarini o‘tkazish boshlandi. Ushbu yig‘ilishlarda kun tartibiga muvofiq, 23 ta mahallada, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari (oqsoqollari), oqsoqollarning maslahatchilari saylangan[6].

Tez va shiddatli o‘zgarib ketayotgan jarayonlar, hayot talablariga to‘la javob beradigan qonun va qarorlar ishlab chiqishni talab qiladi. Hayot talablariga mos, aholining ehtiyojlarini inobatga olgan holda, 1999-yilning 14-aprelida davr talabiga muvofiq, sifat jihatidan yangi va mukammal yuridik hujjat “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” gi yangi tahrirdagi Qonuni[7] qabul qilindi. Bu Qonun ijtimoiy – siyosiy, ma‘naviy – ma‘rifiy hayotimizda katta voqea bo‘ldi. Unda ma‘lum ma‘noda jamiyatimiz, davlatchiligimiz taraqqiyotining uzoq yillarga mo‘ljallangan yo‘nalishlari belgilab berildi. Yangi tahrirda qabul qilingan bu Qonun avvalgisidan keskin farq qilib, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish huquqini amalga oshirish mexanizmlarini va kafolatlarini ochib berdi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yangi tarkiblarini tashkil qildi, ularning huquq va vakolatlarini yanada kengaytirdi hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining asoslarini belgilab berdi[8]. Yuqoridagi ikkita Qonunning yaratilishi bilan mazkur sohada avval mavjud bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi rayosatining 1983 yil 4 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi shaharlarida, posyolkalarida, qishloqlarida mahalla qo‘mitalari haqidagi Qonunni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 1988 yil 30 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy majlislari, turar joylarda yig‘ilishlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 1990 yil 14 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq deputatlari posyolka Kengashi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi xalq deputatlari qishloq Kengashlari to‘g‘risida”gi qonunlari va farmonlari amalda o‘z kuchini yo‘qotdi[9].

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni oshib borayotgani va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari oqsoqollari va maslahatchilarining salohiyatini yanada oshirish, tashkilotchilik qobiliyatini inobatga olish maqsadida 2004 yil 29 aprelda “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi Qonun[10] qabul qilindi. Qonundan ko‘zlangan asosiy maqsad, shahar-qishloq hamda ovullardagi mahallalarning oqsoqoli va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga doir masalalarga e‘tibor berilgan.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan bir qancha dasturlar ishlab chiqildi va tatbiq etildi. Mana shunday dasturlardan biri, 2000- yil 2- iyunda tayyorlangan “XXI asr mahallasi” konsepsiyasi bo‘lib, ushbu konsepsiya mahallaning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini oshirishga, rivojlangan, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratildi. Mazkur konsepsiyani amalga oshirishning huquqiy asoslari istiqbol yillarida ishlab chiqilgan bo‘lib, buning natijasi fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining ular tomonidan ishlab chiqilgan bir qancha tashkiliy masalalarni hal qiluvchi tashkilotlarning tuzilganligi bilan o‘z yakunini topdi.

2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusida ma'ruza qilib, "fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifani hal qilishda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim"[11] deb fikrlarini bayon etdilar.

2013 yil 28 martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n birinchi yalpi majlisi chaqirildi. Majlisda kun masalasi etib, Prezidentning takliflariga asosan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunga, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonunlarini qayta ko'rib chiqish belgilandi. Shu asosda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-350-sonli Qonun 2013 yilning 23 aprelida, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-351-sonli Qonuni esa shu yilning 24 aprelida ushbu qonunning yangi tahrirlari e'lon qilindi. Bu Qonunlar "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" asosida ishlab chiqilgan. Jumladan Qonunda shunday deyiladi: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, milliy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarini belgilash, ularga nom berish tartibi to'g'risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin[12].

Shuningdek, Qonunda mahallaning davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarni yanada takomillashtirish hamda mahallani aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, keksalar, nafaqaxo'rlar va nogironlarni manzilli aniqlash, aholi bandligiga ko'maklashish vazifalari belgilab berilgan.

Qonunda fuqarolar yig'inlari huzuridagi maslahat markazlarining vazifa va vakolatlari ham ko'rsatib o'tildi. Maslahat markazlari tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan fuqarolar yig'ini hududida yashovchi aholi uchun qisqa muddatli kurslar, ya'ni iqtisodiyot asoslari, yoshlarning ishga joylashishiga, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga kredit olishlari uchun tegishli hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashishi ham belgilab qo'yildi[13].

Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-sonli "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom, 2013-yil 7-oktabrdagi 274-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolar yig'inlarida ish yuritishni tashkil qilish va olib borish tartibi to'g'risida" gi Nizom, 2013-yil 10-

iyuldagi “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarori va boshqalar ham fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini bevosita tartibga soluvchi huquqiy asoslar tarkibiga fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslari qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar ham kiradi.

Fuqarolar yig‘ini va fuqarolar yig‘inining raisi u yoki bu masala yuzasidan qaror qabul qiladi. Mazkur qarorning yuridik tabiati o‘ziga xosdir, ya‘ni fuqarolar yig‘ining raisi (oqsoqoli) qabul qilgan qarorning bajarilishi majburiyiligi “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari yoki fuqarolar yig‘ini raisining qarorlarini bajarmaslik tegishli tarzda javobgarlikka asos bo‘ladi. Shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va fuqarolar yig‘inining raisi qabul qilgan qarorlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, hamda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlaridan yuqori turuvchi organlar qabul qilgan qonun osti hujjatlariga zid kelmasligi lozim, bunday holda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining qarorlari o‘z kuchini yo‘qotadi.

Fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish belgilab beruvchi nizomlar huquqiy hujjatlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Ushbu nizomlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun asosida tuziladi hamda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmasligi lozim.

Nizom – muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi[14].

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini faoliyati ayrim yo‘nalishlarini belgilovchi va tashkil qiluvchi nizomlar qatoriga “Jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar” to‘g‘risidagi Nizom; “Mahalla posboni” jamoat tuzilmalarining nizomlari; fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari huzuridagi “Yarashtirish komissiyalari” to‘g‘risidagi nizomlar.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatining alohida jihatlarini huquqiy tartibga soluvchi joriy qonunlar – o‘zini-o‘zi boshqarish organlari huquqiy asoslarining tarkibi hisoblanadi.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tartibga soluvchi joriy qonunlardan biri “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun bo‘lib, mazkur qonun boshqa joriy qonunlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Ushbu qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘z hududidagi fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini rivojlantirishda ko‘maklashish majburiyati, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan yaqinda alohida faoliyat yuritishi lozimligi hamda ular vakolatlarining chegaralari belgilab berilgan.

Ayni paytda fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatining boshqa ayrim jihatlarini O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, Ma‘muriy Javobgarlik Kodeksi, “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi, “Kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi

Qonunlari ham ma'lum bir tarzda huquqiy tartibga soladi, ya'ni fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga huquq beradi va ayni bir vaqtning o'zida majburiyatlar yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, ularni zamon talablari, xalqimizning tarixiy rivojlanish an'analari va qadriyatlariga mos ravishda takomillashtirib borish hamda ushbu tizimda ijtimoiy sherikchilik va jamoatchilik nazorati yo'nalishlarini kengaytirish mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. Toshkent: Sharq, 2011. 137-bet.
2. Раҳмонов Р. Ҳирот: Навоий обод этган маҳалла / Mahalla. 2003. 28 may.
3. Амир Темур ўғитлари. –Т. Наврўз, 1992 й. –Б-17.
4. Каримов И.А. Қонунга ҳурмат, қонунга итоат ҳаётимиз мезони бўлсин // Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 9 йиллигига бағишланган тантанали маросимида сўзлаган нутқи, 2001 й 7 декабрь.
5. Ўзбекистон Республикасининг 1993 й 2 сентябрь “Фуқароларни ўзини ўзи бошқариш тўғрисида”ги 915-ХII-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси 1993,9-сон,322- модда.
6. Ҳакимов.Н, Жўрақулов.О.Шаҳрисабз тарихи.-Қарши. 2001. -Б-108
7. Ўзбекистон Республикасининг 1999 й 14 апрель “Фуқароларни ўзини ўзи бошқариш тўғрисида”ги (янги таҳрири) 758-І-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси 1999,5-сон,110- модда.
8. Рўзиев.З, Исмоилова.Г. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятининг норматив-ҳуқуқий таҳлили.-Т, 2016. -Б-8.
9. Иноятова.Д.М // Ўзбекистонда фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг тарихий тараққиёт босқичи. -Т, 2016. -Б-113.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) ва унинг маслаҳатчилари сайлови тўғрисида”ги 2004 йил 29 апрельдаги 609-ІІ-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2004 йил. 5-сон, 78-модда.
11. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси / Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2010 й, 13 ноябрь.
12. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 10-сон, 107-модда
13. Ортиқова С. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари роли ошмоқда // Халқ сўзи. 2013, 27 март.
14. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – Т.: Adolat, 2009. – В. 332.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).